

**ASALARILARDA PARAZITLARI KELTIRIB CHIQARADIGAN KASALLIKLAR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6596940>

**Yunusov Mirzakarim Mirzaxalilovich,**

*FarDU b.f.n.dotsent,*

**Xabibullayev Fayzulla Nabibullayev,**

*FarDU tayanch doktorant*

*Farg'ona davlat universiteti*

**Азимова Фарангис Хиббатжоновна.**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida asalarilarda parazitlik qiluvchi va asalarilarda ular keltirib chiqaradigan kasalliklar, ularning belgilari va oldini olish, davolash yo'llari qisqacha berilgan..*

**Аннотация:** *В данной статье дан краткий обзор болезней, которыми паразитируют пчелы в Ферганской долине и что они вызывают у пчел, их симптомы и профилактика, лечение.*

**Annotation:** *This article provides a brief overview of the diseases that parasitize bees in the Ferghana Valley and what they cause in bees, their symptoms and prevention, treatment.*

**Kalit so'zlar:** *asalari kasalliklari, vorroatoz, invaziya, Yakobson kanasi, mum, lichinka, ona asalari, ishchi asalari, erkak asalari.*

**Ключевые слова:** *болезни пчел, ворроатоз, инвазия, тростник Якобсона, воск, личинки, пчеломатки, рабочие пчелы, пчелиные самцы.*

**Key words:** *diseases of bees, vorroatosis, invasion, Jacobson's reed, wax, larvae, queen bees, worker bees, male bees.*

Asalarichilik qishloq xo'jaligining tarmoqlaridan biri sifatida asal, mum va boshqa mahsulotlar (asalari suti, asalari yelimi, asalari zaxari) olish, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun ularni changlatish maqsadida boqiladi. Asalarichilikka bo'lgan e'tibor va qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Bugungi kunda asalarichilarni asalarilarda uchraydigan juda ko'plab muammolar qiyab kelmoqda. Shu bilan birlgilikda ularda uchraydigan asalari kushandalari, asalari kasalliklari va ularni keltirib chiqaruvchi parazitlar ham muammolarda biri sanaladi. Hozirgi kunda keng tarqalib borayotgan vorroatoz - bu yuqumli invaziya kasalligi arilarda uchraydigan kasallik bo'lib, uni Yakobson kanasi tarqatadi. Bu kana kasalik Farg'ona vodiysining ko'plab hududlarida va boshqa viloyatlarda ham ko'p tarqalgan holda asalarichilikka juda katta zarar yetkazmoqda. Shuning uchun ham har bir asalarichilik bilan shug'ullanuvchilar bu parazit hayot kechiruvchi kananing rivojlanish holati va

ularga qarshi kurashish choralarini bilishi kerak dagan maqsadda uning ayrim xususiyatlari haqida kuzatuv natijalarini yoritishga hakakat qildik. Vorroatoz kanasining rangi jigarrang bo'lib, oddiy ko'z bilan ko'rindigan, og'iz apparati yordamida tanani teshib so'rvuchi parazit kananing to'rt juft oyog'ida tanaga yopishib oluvchi moslamalari mavjud. Asosan ishchi ari, erkak ari, ayrim hollarda ona ari tanasida(Farg'ona-2022 yil aprel) urg'ochi kanalar yopishib olgan holda hayot kechiradilar. Erkak kanalar esa urg'ochi kanalar bilan asalari katakchalari ichida qo'shilib (yoki erkak ari inchalarida) urchitib bo'lgach, ishchi ari yoki erkak ari inchalarida halok bo'ladi. Farg'ona vodiysi xududlarida uchrobvchi kanalar: Urg'ochi kana tanasining uzunligi o'rta hisobda 1,1 mm, eni esa 1,7 mm; erkak kana tanasining uzunligi 1,0 mm, eni 0,9 mm ga tengligi kuzatildi. Kanalarning asosiy yopishib ozuqlananadigan joylari bosh, ko'krak va qorin o'rtasida hamda 3 ta oldingi qorin bo'limlari oraliqlari hisoblanadi. Uzatuvarimiz davomida bitta ishchi ari, erkak ari yoki ona ari tanasida 3 tadan to 5 tagacha kana yashashi mumkin (Marxamat tumani, 2021 yil iyun). Tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'lishicha vodiy sharoitida ham vorroatoz kanasini faqat urg'ochisi qishlab chiqadi (Marxamat tumani-2021yil dekabr) va jinsiy yo'l bilan ishchi ari, ona ari hamda erkak arilarining mumkatak inchalarida kurtchalarni tanasida rivojlanib ko'payadi. Inchalardagi qurtchalar ustini berkitishdan oldin urg'ochi kana inchaga kirib, incha devorlariga yoki qurtchalar tanasiga 3-8 tagacha tuxum qo'yadi. Inchalarga tuxum qo'yish uchun bir yo'la bir nechta urg'ochi kana kirishi mumkin. Kananing tuxumi xuddi tuxum shaklida, oppoq sut rangida bo'ladi. Arilarning inchalariga qo'yilgan kana tuxumidan oradan 8-9 kun o'tgach urg'ochi kana, 6-7 kun o'tgach erkak kana yetiladi. Urgochi kana erkak kana bilan usti berk ari inchalarida qo'shiladilar va tayyor urchigan urg'ochi kanalar arilar inchadan chiqish vaqtida ularning tanasiga yopishib, birga chiqib keladi.

Kanalar har xil sharoitda ham oziqsiz 3-5 kundan ortiq yashay olmaydi. Tadqiqotlarimiz davomida havo harorati 30-34°C va 60% namlik kanalarning ko'payishiga eng qulay sharoit hisoblanadibo'ladi.. Bu kanalar Farg'ona vodiysi sharoitida 42-44°C issiqqa va 0-2°C sovuqqa ham chidaydi. Namlik 10-12% bo'lganda ular nobud bo'ladi. Quyosh nurlarini yoqtirmasligi kuzatildi.

Vodiy sharoitida urg'ochi kanalar 22-25°C haroratda havo namligi 70-80% bo'lganda 5-6 kun davomida och yashashi mumkin (Marxamat tumani-2022 yil aprel). Ichida arisi yo'q uyalardagi qoramtil mumkatak inchalarda 6-7 kun, ochiq qurtchada 15 kun, yopiq qurtchada 32 kun, o'lgan arilar tanasida 3-5 kun, o'lik gumbak tanasida 7-11 kun yashay oladi. Katta yoshdagagi urg'ochi kanalar ari (gemolimfa) qoni bilan oziqlanib, qurtga, gumbak va katta yoshdagagi arilar tanalarini toliqtirib, oqsil kasalini rivojlantiradilar va natijada arilar tana to'qimalarining ish faoliyati buzilib, qoniga gafniox, Yevropa chirish kasali, paratif kabi yuqumli kasalliklar bakteriyalarining yuqishiga sabab bo'ladi va ikki xil kasalning ta'sirida arilar o'la boshlaydi. Qurtchalar

tanasidagi qonni kanalar so'rishi natijasida qon kamayib, oqsil moddasiga tashnalik kuchaygach, arilar kurtchalarmi uya teshigi oldidagi taxtachaga sudrab olib chiqib tashlaydilar. O'lgan lichinkalar qo'lansa hid chiqargani bois, katakchalar ichidan oson olinadi. Kana yopishgan arilar bezovtalanadi, katakchalardan chiqib arixonaning tagiga to'kiladi. Kana bosgan oilalar notinch bo'lib, qishlovga kirishda bir yerga yig'ilal olmaydi. Ularning o'sishi va asal yig'ishi kamayadi, bu oilalarda ona arining tuxum qo'yishi erta kuzda to'xtaydi. Kuzda kuchsizlanib qolgan oilaga kuchli oila arilari hujum qiladi.

Farg'ona vodisida olib borilgan tadqiqotlar asosida vorroatoz kana kasali bilan kasallanish uch xil pog'onada o'tadi deb belgilash mumkin.

1- Kanalar arilarni 0,5-2% gacha zararlaydilar va kana bilan zararlanish ari oilasining rivojlanishiga uncha ta'sir ko'rsatmaydi, kanaga qarshi kurashish ishlarini, olib borilsa, oilani qayta tiklash mumkin.

2- Zararlanishda kanalar 3% dan 30% gacha gumbaklar, arilar, erkak arilarni zararlaydilar va bunday zararlanishga ham qarshi kurashishning iloji bo'ladi.

3- Zararlanishda arilar, gumbaklar, erkak arilar 30% dan ortiq zararlanganda kanaga qarshi kurashish qiyin bo'lib, ko'pchilik hollarda ari oilalarini o'lib ketishi kuzatildi.

Bu hulosalar havaskor asalarichilarga kasallikni oldini olib, uni bartaraf etishda qo'l keladi deb hisoblaymiz.

Vorroatoz kasalligiga tashxis qo'yishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega.

- Arixonalarda yoz oyining oxirida hamda kuz oylarida kana kasalini tarqatuvchilar ko'zga tez tashlanib, oson aniqlanadi.

- Bahor va yoz oylarida arilarning tanalarida, qurtchalarda hamda arilar qo'nadigan taxta ustida kanalarni uchratish mumkin.

- Qishda esa uyaning tag qismiga to'kilgan iflos chiqindilar ichiga ham kanalar to'kilganligi ko'rish mumkin (Farg'ona tumani-2021 yil dekabr).

- Katta yoshdagи arilar va erkak arilar tanasini ikkinchi va uchinchi qorin bo'g'imlarining orqasida ko'proq uchraydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. N. F. Kraxotin. O'zbekistonda asalarichilik. – T.: Mehnat, 1991.
2. A. I. Isamuhamedov. Asalarichilik. – T.: O'qituvchi, 1995.
3. Н.Ф.Крахотин. Календарь пчеловода. – М.,1989.
4. А. Г. Авестесян. Пчеловодства. – М.
5. А. С. Нуждин. Основы пчеловодства. – М., 1988.
6. И. Х. Иргашев, С. Старков. Основы пчеловодства и болезни пчел. – Т.: Мехнат, 1987.